

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
rektori

I. Madjidov
07 2026-yil

IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY TA’LIM
BO‘YICHA KADASTR BAKALAVRIAT TA’LIM YO‘NALISHI UCHUN
IMTIHON DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
(ta’lim yo‘nalishlarga mos fan bo‘yicha)

Toshkent – 2026

Tuzuvchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti "Geodeziya, kartografiya va kadastr" kafedrası mudiri, PhD., dotsent K.K.Bekanov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti "Geodeziya, kartografiya va kadastr" kafedrası katta o'qituvchisi B.N.Yusupov

Taqrizchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti "Geodeziya, kartografiya va kadastr" kafedrası professori, g.f.n., A.Egamberdiyev

O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi yetakchi mutaxassisi t.f.f.d. (PhD)., S.A.Karabazov

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2026-yil _____dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

KIRISH

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning rivojlanishni hisobga olib, tabiiy va xo'jalik resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini majmuaviy tahlil qilish va baholash eng zarur masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu dasturda davlatimiz uchun muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mamlakatimiz hududidagi tabiiy resurslar va inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarning huquqiy holatlari, miqdorlari va xususiyatlari to'g'risidagi so'nggi holatiga oid zaruriy ma'lumotlarni to'plash, ularni saqlash va foydalanuvchilarga yetkazib berish tizimini yaratish maqsadida mamlakatimizda tashkil etilgan tarmoq davlat kadastrlarini yaratish va yuritish, ularning nazariy va huquqiy asoslarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Shuning bilan birgalikda ushbu fan dasturida hududlarni majmuali tarzda o'rganish, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy resurslar salohiyatini muntazam ravishda tahlil qilish, yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan qaysidir moddiy boylik turi, ob'ekt bo'yicha ma'lum iqtisodiy muolajani amalga oshirish, ularning shu muolaja vaqtidagi miqdor va sifat holatlariga, me'yoriy baholariga, huquqiy holatlariga doir batafsil, to'g'ri va operativ ma'lumotlarga ega bo'lish tamoyillari keltiriladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Qayd etilgan bakalavriatura yo'nalishi bo'yicha ta'lim oladigan talabalarni O'zbekiston Respublikasining tabiiy resurslar va inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarini yagona umum davlat, yaxlit va kompleks hisobga olish hamda baholash maqsadida Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishni nazariy, huquqiy, uslubiy va amaliy jihatdan o'rganish hisoblanadi.

Mazkur dasturning asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasi va uning alohida hududlarining tabiiy-iqtisodiy salohiyatini yagona umumdavlat jixatidan kompleks hisobga olishi va baxolashni ta'minlash maqsadida ko'p qirrali axborot tizimidan iborat bo'lgan davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYT) tarkibiga kiruvchi davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning nazariy va huquqiy asoslari bilan tanishtirish.

Fan bo'yicha abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

- Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- Davlat kadastrlar tizimi, uning tashkiliy - huquqiy va boshqaruv shakllari bilan tanishish;
- Davlat kadastrlarni yuritishda ma'sul vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning vakolatlarini va vazifalarini o'rganish;

- Respublikamizda davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning normativ-huquqiy asoslarini o'rganish;
- Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda xorijiy mamlakatlarning tajribalari bilan tanishish;
- Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish sohasida davlat organlarining vakolatlari bilan tanishish;
- Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish tartibini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish hamda kadastr raqamlarini shakllantirish tartibini o'rganish;
- Davlat kadastrlari yagona tizimini (DKYT) yaratish va yuritish tartibi bilan tanishish;
- Davlat yer kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Gidrotexnika inshootlari davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Temir yo'llari davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Transport quvurlari davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Aloqa ob'ektlari davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Energetika ob'ektlari davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Kartografiya – geodeziya davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Foydali qazilma konlari, belgilari va texnogen hosilalar davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Davlat suv kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Davlat o'rmon kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- O'simliklar dunyosi davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Chiqindilarni ko'mib tashlash va utillashtirish joylari davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Tabiiy xavfi yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish;
- Hududlarning davlat kadastrini yuritish tartibi bilan tanishish va boshqalar hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Kadastr

Bo'lg'usi bakalavrlar mamlakatimizning tabiiy iqtisodiy saloxiyati bo'lgan yer, suv, o'rmon va boshqa davlat kadastr ob'ektlarining huquqiy maqomi to'g'risidagi ma'lumotlar, kartografiya-geodeziya materiallari, statistik hisobga olish ma'lumotlari, davlat kadastrlari ma'lumotlari xududlarni kompleks baholash uchun zarur bulgan boshqa ma'lumotlar yig'ishning ilg'or usulari va texnologiyalarini bilan tanishtirish.

Kartashunoslik fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

– davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritishning nazariy va huquqiy asoslari; davlat kadastrlari ob'ektlarining miqdor va qiymat tasniflari; davlat kadastrlari yagona tizimi kadastrlarini yaratish va yuritish tartibi; davlat kadastrlarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;

– hududlarni kadastr bo'yicha bo'lish kartalarini tayyorlashni; kadastr raqamlarini hisobga olishni; kadastr ob'ektlarining miqdor va sifat tavsiflarini; kadastr hujjatlari bilan ishlashni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

– kadastr ob'ektlarining tabiiy, xo'jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmati, o'rni va o'lchamlari, ularning foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o'rtasidagi taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlar hamda hujjatlar bilan ishlash *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

Imtihon natijalarini baholash mezonlari

Imtihon suhbat shaklida o'tkaziladi hamda suhbat natijasi o'tdi yoki o'tmadi shaklida baholanadi.

Baholashda nafaqat nazariy bilim, balki abituriyentning masalani tahlil qilish, algoritmik fikrlash, amaliy yechim taklif qilish va axborot xavfsizligining asosiy tushunchalarini izohlash qobiliyatiga ham e'tibor qaratiladi.

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Imtihon komissiyasi faoliyati 2026/2027 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Kadastr fanlaridan sinovlar bo'yicha imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha апеллatsiya komissiyasi tashkil etiladi.


Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



Z. Raxmonov